Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2024-yil 4-dekabr, chorshanba,
139 (24.016)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Farzandingiz sizdan qaysi fazilatlarni o‘zlashtirib olishi mumkinligini tahlil qiling



Hamjihat bo‘lib ishlasak, barcha maqsadlarga erishamiz

Viloyatning yangi tayinlangan rahbari A.Boboyev hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, aholi turmush darajasi bilan tanishib, xalq bilan yuzma-yuz muloqot qilmoqda.

Viloyat hokimi dam olish kunlari Samarqand shahrida amalga oshiriladigan yangi loyihalar bilan tanishib, Qorasuv massivida mahallalarda aholi vakillari bilan suhbatlashgan bo‘lsa, hafta boshida Past Darg‘om va Urgut tumanlarida bo‘ldi.

A.Boboyev shaharning Qorasuv massivida mavjud muammolarni bartaraf etish, bu yerda istiqomat qilayotgan aholi uchun barcha sharoitlarni yaratish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Ushbu hududda barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivining bosh rejasi loyihasi bilan tanishdi. Shuningdek, yangi qurilayotgan maktab binosi ko‘zdan kechirilib, binoda energiya tejamkor qurilish materiallari va texnik jihozlardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev Past Darg‘om va Urgut tumanlarida sektor rahbarlarining hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha taqdimotlari bilan tanishib, joylarda aholi uchun qulay infratuzilma yaratish, tadbirkorlik subyektlarini faol qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari ochish zarurligini ta’kidladi.

– Hududlarni har tomonlama rivojlantirish, odamlar uchun qulay mehnat va turmush sharoiti yaratish yuzasidan har bir rahbar, mutasaddi oldiga aniq vazifa qo‘yilgan, - dedi A.Boboyev. – Agar hokimlar, sektor rahbarlari hamjihat bo‘lib, o‘z mas’uliyatini his qilgan holda zimmasidagi vazifalarni astoydil bajarishga harakat qilsa, albatta, oldimizga qo‘yilgan maqsadlarga erishamiz, viloyatimizni yana ham obod qilamiz, odamlar turmush darajasini oshiramiz.

Afg‘oniston rasmiylari Samarqandda

Afg‘oniston Bosh vazirining o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi Abdul Salom Hanafiy boshchiligidagi delegatsiya Samarqandga tashrif buyurdi.

Mehmonlarni Samarqand temiryo‘l vokzalida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev kutib oldi.

Mehmonlar dastlab Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qildi. So‘ngra Amir Temur maqbarasi, Registon majmuasi, Shohi Zinda ziyoratgohi, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi va boshqa tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan yaqindan tanishdi. Ajdodlarimizning yuksak aql-zakovati, bunyodkorlik timsoli bo‘lgan mazkur obidalarni asrab-avaylash borasidagi ishlar e’tirof etildi.

– Samarqand zaminida yotgan Imom Buxoriy va boshqa ulug‘ allomalar o‘z vaqtida muqaddas dinimiz uchun hayotini bag‘ishlaganlar, islomning asl mohiyatini tushuntirib, musulmonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlaganlar, – deydi Afg‘oniston Bosh vazirining o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi Abdul Salom Hanafiy. – O‘zbekiston hukumati bu ulug‘ zotlar dafn etilgan, ular nomi bilan bog‘liq maskanlarni obod qilish, asrab-avaylashga juda katta e’tibor qaratayotgani tahsinga loyiq. Bu avvalo yosh avlod qalbida ulug‘ ajdodlaridan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘ularini uyg‘otadi. Qolaversa, ziyorat turizmi rivojlanishiga xizmat qiladi.

B.MUSTANOV.



Hech kim mehr va e’tibordan chetda emas



Viloyat musiqali drama teatrida “3-dekabr - Xalqaro nogironlar kuni” munosabati bilan xayriya marafoni o‘tkazildi.

Viloyat hokimining o‘rinbosari Husan To‘xtayev, Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i Xurshid Nazarov va boshqalar viloyatimizda nogironligi bor fuqarolarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar haqida so‘z britdi. Barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangani, bu borada viloyatimizda ham salmoqli ishlar qilinayotgani ta’kidlandi.

Imkoniyati cheklangan fuqarolarga aravacha hassa hamda eshitish moslamalari topshirildi.

- Ijtimoiy xodim, mahalla faollari holimizdan xabar olib turibdi, - deydi Samarqand shahar Yuksalish mahallasida istiqomat qiluvchi O‘tkir Qudratov. - Yaqinda aravacha berishdi. Yordam pulini ham olyapman. Bu e’tibor biz uchun katta ahamiyatga ega.

Tadbir doirasida ishtirokchilar uchun Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylariga sayohat tashkil etildi.

Viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar doirasida hafta davomida joylarda qator madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladi. “Muruvvat” va “Saxovat” internat uylari, xonadonlarga borilib, alohida e’tiborga muhtojlar holidan xabar olinadi, nogironligi bor fuqarolarga maxsus ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi.

Kun mavzusi

Ochig‘ini aytganda, deyarli har yili ana shu savol bilan mutasaddilarga yuzlanamiz va har doim ijobiy javob olamiz: tizim tiklanadi! Samarqandda issiqlik tizimini tiklash borasidagi loyihalar 2015-yildan beri aytib kelinadi. Bir safar mutasaddilar sohaga davlat dasturi asosida katta mablag‘ ajratilishini ma’lum qilsa, boshqa gal mas’ullar tizimni tiklash uchun katta miqdorda xorijiy mablag‘ jalb etilayotganini aytib, kelgusi yil albatta, issiqlik tizimi ishlashiga va’da beradi. Biroq necha yilki, sohani oyoqqa turg‘azish haqidagi rejalar hech amalga oshmaydi.

Samarqand aholisi qachon markazlashgan issiqlik tizimidan foydalanadi?

Mutaxassislar 30 yil davomida bu sohaga yirik investitsiya kiritilmagani, tarmoqlar eskirib, ishdan chiqqani, xuddi shunday, qozonxonalar ham allaqachonlar “yoshini o‘tab bo‘lganini” aytishdi.

Soha iste’molchilar tomonidan ham, OAV tomonidan ham “bearmon” tanqid qilindi, ko‘plab rahbarlar ishdan olindi, ammo o‘zgarish bo‘lmadi. Markazlashgan issiqlik tizimidan foydalaniladigan ko‘p qavatli uylar soni yil sayin kamaya bordi. Ayni vaqtga kelib Samarqand shahrida markazlashgan issiqlik ta’minotidan foydalanayotgan ko‘p qavatli uylar 13 tani tashkil etadi. Bugungi haqiqat ana shu!

Tanqid o‘z yo‘liga. Bugungi maqolada viloyat “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi, umuman, tizimdagi real vaziyat bilan tanishib o‘tamiz.



Samarqanddagi eng yirik, o‘z vaqtida aholining katta qismini issiqlik bilan ta’minlagan qozonxona bu - siz suratda ko‘rib turgan RK-2 inshooti hisoblanadi. Ushbu qozonxona 1962-yilda qurilgan. Ya’ni, bundan 62 yil oldin qurilgan. Bir vaqtlar mana shu inshootning o‘zi Registondan Sartepagacha bo‘lgan (ko‘p qavatli uylar va korxona tashkilotlarni issiqlik bilan ta’minlagan: 381 ta ko‘p qavatli uydagi 22 mingga yaqin xonadon isitilgan. Yillar davomida issiqlik trassasi, ichki tarmoqlar va inshootning o‘zi eskirib, ishdan chiqa boshlagan, shu davr mobaynida tarmoqlar deyarli yangilanmagani sababli isitiladigan uylar soni tobora qisqarib boravergan.

Oxirgi marta bu qozonxona 2016-yilda shaharning Sartepa mavzesidagi uylarga issiqlik bergan. O‘sha yili sovuq kunlarning birida elektr tokidagi uzilish sabab suvlar muzlab, hududdagi tarmoqlar ham ishdan chiqqani aytiladi. Xullas, kichik bir avariya sabab bu hudud ham markazlashgan issiqlikdan mahrum bo‘lgandi.

(Davomi 3-sahifada) »»

Bosh qomusimiz barqaror iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qilmoqda

8-dekabr – Konstitutsiya qabul qilingan kun

Adiz BOBOYEV,
viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi.

Mamlakatimiz va xalqimiz buguni hamda ertasini belgilab beradigan, huquq va manfaatlarimiz, erkinliklarimizni kafolatlaydigan Asosiy qonun qabul qilinganiga 32 yil to‘ldi. O‘tgan yili umumxalq muhokamasida pishitilib, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizga ko‘plab yangi modda va normalar qo‘shildi, muhim o‘zgarishlar kiritildi.

Bu bilan Bosh qomusimiz milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyat va davlatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, Yangi O‘zbekistonning strategik maqsadlarini ro‘yobga chiqarishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib berdi. Hujjat bilan O‘zbekistonda yangi ijtimoiy-siyosiy muhit shakllandi, davlat o‘ziga katta ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlar oldi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etilib, davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli yo‘lga qo‘yildi.

Shu o‘rinda qayd etish o‘rinliki, Prezidentimiz farmoni asosida yangilangan Konstitutsiyani amalga oshirish bo‘yicha Davlat komissiyasi hamda 5 ta ekspertlik kengashlari tuzildi. Oliy Majlis palatalari tomonidan 38 banddan iborat Konstitutsiya mohiyatini tushuntirish bo‘yicha kompleks dastur qabul qilinib, Oliy Majlis tomonidan 100 ga yaqin qonunlarni Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish bo‘yicha dastur tasdiqlandi.

Shularning o‘ziyoq bosh hujjatni yangilash va o‘zgartish kiritish rasmiyatchilikdan xoli, hayotiy zarurat ekanligini isbotlaydi. Asosiysi, Bosh qomusimizda o‘z aksini topgan yangiliklar, ularni hayotga izchil tatbiq etish borasidagi amaliy sa’y-harakatlar hisobotlarni to‘ldirish, ma’ruzalarga bezak berish uchun emas, aynan har bir fuqaro turmushiga fayz, obodlik va sifat olib kirish maqsadida qilinayotganini hamyurtlarimiz o‘z hayotlarida his qilishmoqda.

BU MENING KONSTITUTSIYAM

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya 1992-yilda qabul qilinganidan buyon unga 15 marotaba kiritilgan o‘zgarish va qo‘shimchalarning deyarli barchasi asosan davlat va jamiyat qurilishi, jumladan, Prezident, parlament, hukumat faoliyati, saylov tizimi va boshqalarga taalluqli bo‘lgan.

O‘tgan yili Bosh qomusimiz shunchaki o‘zgartib qo‘yilmadi: ziyolilardan tortib, oddiy insongacha muhokama qildi, taklif berdi. Butun xalqimiz taklifi bilan ancha “to‘lishgan” Yangi O‘zbekistonimizning yangi tahriridagi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi.

Sirasini aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aholi va jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlari aks ettirilganligi uchun uni har bir O‘zbekiston fuqarosi “Bu mening Konstitutsiyam”, deb ishonch bilan ayta oladi.

Negaki yangilangan Asosiy qonunga kiritilgan normalarning yarmidan ko‘pi insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa, o‘zgartishlarning 45 foizidan ortig‘i ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tartibga soladi.

Konstitutsiyada ilk marotaba har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega ekanligi va hech kimning zimmasiga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yildi.

Bunda insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va konstitutsiyaviy tuzumni, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatini, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan darajada cheklanishi mumkinligi belgilandi.

Konstitutsiyada siyosat ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyiliga qaratilgan, fuqarolarning munosib turmush darajasi va sifatiga erishishga, muhtojlarga yordam ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy davlat belgilari o‘z ifodasini topdi.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish, munosib turmush sharoitlarini yaratish, hech kim e’tibordan chetda qolmasligi uchun davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan normalar mustahkamlandi.

HAR KIM MUNOSIB MEHNAT QILISH HUQUQIGA EGA

Keyingi yillarda yurtimizda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Misol uchun, aholiga imtiyozli kreditlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy ko‘mak berilishi yo‘lga qo‘yildi. Ishsiz fuqarolar turli kasb-hunarlarga o‘qitilmoqda, buning uchun monomarkazlar tashkil qilindi. Yuqori malaka, oliy ma’lumot talab etilmaydigan darajadagi ishlarga aholi ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida joylarda o‘quv kurslari ochilmoqda.

So‘zimiz quruq bo‘lmasligi uchun ayrim raqamlarni keltirib o‘tsam: joriy yilning 9 oyi davomida viloyatda 12 mingdan ko‘proq ishsiz odam kasb-hunarga o‘qitildi. Tashqi mehnat migratsiyasi yo‘nalishida o‘qitilganlarni hisobga olsak, qariyb 20 mingga yaqin odam bepul kasb-hunar o‘rgangani oydinlashadi.

Qayd qilingan davrda 22 mingdan ko‘proq fuqarolarimiz hokim yordamchilari tavsiyasi bilan kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitilgan.

(Davomi 2-sahifada) »»







BOSH QOMUSIMIZ BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASHGA XIZMAT QILMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Asosiy qonunning 42-moddasida **“Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash... huquqiga ega”**ligi belgilab qo‘yildi. Yuqoridagi amaliyot ayni moddaning hayotiy ifodasi emasmi?

Xulosani har kim o‘zi chiqarsin. Ammo mehnat huquqi haqida gap ketganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada **“mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi”** mustahkamlanganini qayd etish o‘rinli.

Chunki bu norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini o‘rnatish tartib-taomillarini yaratish bo‘yicha 1928-yildagi Konvensiya, Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha 1970-yildagi Konvensiya talablariga mos va hamohang bo‘ldi.

IJRO HOKIMIYATI ZIMMASIGA VAZIFA YUKLADI

Yangi Konstitutsiyamizning 43-moddasida “Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi...” deyilgan.

Asosiy qonunda ilgari bunday norma, ta’bir joiz bo‘lsa, ijro hokimiyati zimmasiga yuklatilgan vazifa yo‘q edi. Demak, endi yangi-yangi marralar olish zarur. Bu o‘tgan hafta davlatimiz rahbari huzurida Samarqand viloyatini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar taqdimotida ham alohida qayd etildi. Viloyatimizda aholi va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, 4,1 milliard dollarlik 120 ta loyihani amalga oshirish imkoniyati aniqlangan. Xususan, kelgusi yilda viloyatda hududiy dasturlar doirasida kamida 1 milliard 850 million dollar investitsiyalarni o‘zlashtirish hisobiga qo‘shimcha 1,2 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish hisob-kitob qilingan. Asosiysi, bu orqali 20 ming ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan.

Masalan, Past Darg‘om tumani “Chimboyobod” hududida hokimlik zaxirasida turgan 234 gektar yerda maxsus sanoat zonasini tashkil qilish mumkin. Tadbirkorlar u yerga 500 million dollar investitsiya kiritib, farmatsevtika, kimyo, elektrotexnika, qurilish materiallari va oziq-ovqat loyihalarini boshlashga tayyorligini bildirgan.

Yoki Zarafshon daryosi atrofidagi 25 gektar toshloq yer “Urgut” erkin iqtisodiy zonasiga qo‘shilsa, 30 million dollarlik loyihalarga joy bo‘ladi. Darg‘om kanali bo‘yida 35 kilometrli turistik yo‘lak, Narpay kanalida gastronomik ko‘prik tashkil etish orqali birinchi bosqichda 500 milliard so‘mlik loyihalar amalga oshiriladi.

Viloyatdagi yaylov va lalmi yerlarni iqtisodiy aktivga aylantirish borasida Samarqand tumanida 350 gektar lalmi yerda turistik-rekreatsion hudud tashkil qilib, mingta tadbirkorni joylashtirish mumkin. Bu reja pirovardida 3,5 mingta ish o‘rni yaratish imkonini beradi.

Bulung‘urning tuprog‘i, iqlimi meva-sabzavotchilikka qulay. Tumandagi 6 ming gektar samarasi kam g‘alla maydonlari meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirilsa, gektaridan daromad 10 ming dollardan oshishi hisob-kitob qilingan. Natijada mahsulotlarning yarmi eksportga chiqarilib, qo‘shimcha 52 million dollar eksport tushumi ta’minlanadi hamda 45 ming odam ishli bo‘ladi.

Qisqasi, xalqimizni rozi qilishga yo‘naltirilgan islohotlar endi yangi ma’no-mazmun kasb etmoqda.

BOSHPANA EMAS, KICHIK VATAN ...

Ko‘p mamlakatlarda inson mulki, jumladan, uy-joy huquqi bilan bog‘liq masala asosiy hujjatda aks etmagan. Yurtimizda bu borada mustahkam huquqiy asos yaratilgan. Aniqrog‘i, Konstitutsiyaning 47-moddasida ayni masala yechimi belgilab qo‘yilgan. Hech kim sud qarorisiz, qonunga zid tarzda fuqaroni uy-joyidan mahrum eta olmaydi. Zarur holatda mulkdorga uy-joy qiymati, ko‘rilgan zararning o‘rni qonunda nazarda tutilgan tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanadi.

Ayni modda belgilangan norma asosida Samarqandda qurilayotgan uy-joylar haqida to‘xtalish niyatim yo‘q. Chunki bu haqda yetarlicha ma’lumot, xabar tarqatilmoqda. Lekin bir narsani ta’kidlash lozim, istalgan oila borki, chog‘roq bo‘lsa-da boshpanam bo‘lsa, deb umid qiladi.

Har yili yuzlab emas, minglab oilalar, boshpana emas, kichik vatan sohibiga aylanayotgani aynan Konstitutsiya bergan imkon emasmi?!

Demak, asosiy gap shu – Har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega.

Bu borada fikrlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Gapning indallosini esa, xorijiy ekspertlar aytgan: “O‘zbekistonda uy-joy bilan bog‘liq huquq asosiy qonun bilan ta’minlangani ko‘p davlatlarga namuna bo‘lmoqda”.

HAR KIM MULKDOR BO‘LISHGA HAQLI

Inson tabiatan shunday yaratilgan – mulkdor bo‘lsa, kayfiyati, intilishi, umuman, hayotga munosabati boshqacha bo‘ladi. Shu bois Konstitutsiyamizning 41-moddasida: **“Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli.**

Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek, meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi”, deb belgilab qo‘yilgan.

Umuman, mamlakatimizda har qanday xususiy mulkdorning qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilinmasligini ta’minlaydigan ishonchli huquqiy kafolatlar tizimi yaratilgan.

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlari qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqliligi belgilanmoqda.

Sa’y-harakatlarimiz natijasida aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagi oshib, yildan-yilga tadbirkorlik subyektlarining soni ko‘payib borayotgani Konstitutsiyamizning eng katta yutuqlaridan yana biri, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda ayrim raqamlarga to‘xtalmasak, adolatdan bo‘lmas. Chunki aytilgan gaplar, bildirilgan fikr aniq dalillarni taqozo qiladi, deb o‘ylayman.

Jumladan, joriy yilning olti oyida “2 million aholini biznesga jalb qilish dasturi” doirasida 156 ming aholi tadbirkorlikka jalb qilingan. Bunda o‘zini-o‘zi band qilishda 126,6 ming, YaTTlarda 11,9 ming, yangi tadbirkorlik subyektlarida 4,7 ming, dehqon xo‘jaliklarida 12,9 ming aholi bandligi ta’minlangan.

Ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun 54 ta davlat aktivlari auksionga chiqarilib, 59 ta obyekt 69,2 milliard so‘mga sotilgan. Shu davrda 2,8 mingta xizmat va servis obyektlari ishga tushirilib, 83,4 ming ish o‘rni yaratilgan.

Natija-chi, degan tabiiy savol tug‘ilish mumkin.

Viloyatning yarim yillikdagi yalpi hududiy mahsuloti hajmi 36,9 trillion so‘m (2,9 milliard dollar)ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,1 foiz bo‘lgan.

Yilning keyingi davrida yalpi hududiy mahsulot hajmi 87,4 trillion so‘mni, o‘sish sur’ati 105,6 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Umuman, erishayotgan bu kabi yutuqlarimiz, tinch va osuda hayotimiz, iqtisodiy rivojlanish hamda xalqimiz farovonligida Konstitutsiyamizda belgilab berilgan insonparvarlik tamoyillari huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezident farmoniga ko‘ra

Texnikumlar tarmog‘i tashkil etildi

Viloyatdagi professional ta’lim muassasalarida 140 ta kasb bo‘yicha 47882 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. Jumladan, kasb-hunar maktablarida 27368 nafar, kollejlarda 2890 nafar, texnikumlarda 17624 nafar o‘quvchi ta’lim olyapti.

2024-yil 16-oktabrda kasbiy ta’lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta’minlash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in kadrlarni tayyorlash tizimini isloh qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar optimallashtirilib ularning negizida barcha darajalar va yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassis tayyorlaydigan yagona texnikumlar tarmog‘i tashkil etiladi.

Farmonga asosan, viloyatimizdagi 71 ta professional ta’lim muassasalari negizida 57 ta texnikum faoliyat yuritadi. 14 ta professional ta’lim muassasasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufiga berildi. Shu asosda 6 mingdan ortiq o‘quvchi o‘rni yaratildi.

Endi kasbiy ta’lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta’minlash hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyati kengaytiriladi. Shuningdek, kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim dasturlari joriy qilinadi. Kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash tizimi tubdan yangilanadi.

Texnikumlarning mustaqilligi kengaytirilib, ularga barcha dasturlarni bitta muassasa negizida o‘qitish natijasida ta’lim darajalarining uzviyligi, uzluksizligi va integratsiyasi ta’minlanadi.

Texnikumlarda o‘qish muddatlari va davomiyligi kasb murakkabligi va o‘quvchining ta’lim darajasiga qarab belgilanadi.

Boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining 9-sinfini tamomlagan o‘quvchilar uchun davlat granti asosida, umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan boshqa talabgorlar uchun davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tashkil etiladi.

O‘rta maxsus kasbiy ta’lim dasturlarining bitiruvchilariga o‘zlashtirgan modullari, to‘plagan kreditlari va oliy ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o‘rtacha qiymatidan kelib chiqib, bakalavriatning tegishli bosqichidan o‘qishni davom ettirishga ruxsat etiladi.

G‘ayrat NORQULOV,
viloyat oliy ta’lim fan va innovatsiyalar boshqarmasi shu’ba boshlig‘i.

Davlatimiz siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyatda millatlararo, dinlararo totuvlikni mustahkamlashdir. Asosiy Qomusimizning 19-moddasida O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi kafolatlangan. Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq yashab kelmoqda. 157 ta milliy-madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda.

Do‘stu qardoshdir azaldan o‘zbegim tojik bilan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi”da millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an’analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish belgilangan.

Ana shu hujjatlar va ko‘p millati mamlakatimizda qaror topgan bag‘rikenglik muhiti tufayli O‘zbekistonda tojik millatiga mansub aholi ham azaldan do‘st-qardosh bo‘lib yashab kelmoqda. Bu millat vakillarining tili, adabiyoti, urf-odatlari, o‘ziga xos san’at va madaniyatini saqlash va rivojlantirish uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan o‘zbekistonlik tojiklar nihoyat mamnundirlar.

Lekin orada shunday paytlar bo‘ldiki, qon-qardosh, quda-anda xalqlar orasiga sun’iy to‘siqlar qo‘yildi. Bir necha yillar davomida o‘zaro bordi-keldi rishtalari uzildi. Shunday holatlar bo‘ldiki, aka-ukalar bir-birlarining to‘y va boshqa xursandchilik marosimlari, hatto azaga ham borolmasdan qoldi. Faqatgina ikki davlat rahbarlarining shaxsiy siyosiy irodalari va bevosita sa’y-harakatlari tufayli O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi munosabatlarda yangi tarixiy bosqich boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yilda Tojikistonga davlat tashrifini amalga oshirishi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalarda yangi sahifa ochdi.

Dushanbe shahrida do‘stona muhitda olib borilgan muzokaralar siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar



va boshqa sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish hamda chuqurlashtirishga asos bo‘ldi.

Bir zamonlar yopib qo‘yilgan chegaralar 2018-yilning 1-martidan ochilib, 9 ta o‘tish punkti orqali o‘zbek va tojik xalqlarining emin-erkin harakatlanishlariga imkoniyat yaratildi. Biz, samarqandliklar “Jartepa-Sarazm” chegara posti yo‘li ochilishida ishtirok etdik. O‘sha kuni sim to‘siqlar o‘rnini «do‘stlik darvozalari» egalladi. Mubolag‘asiz, o‘n yillab bir-birini ko‘rmagan odamlar yana diydor ko‘rishdi. Albatta, ularning xursandchiligini, ko‘z yoshlarini, ikki mamlakat rahbarlariga minnatdorchilik izhorlarini so‘z bilan ifodalash qiyin.

O‘sha damda beixtiyor buyuk fors-tojik shoiri Abu Abdullo Ro‘dakiyning quyidagi baytlari yodimga keldi:

Jahonning shodligi yig‘ilsa butun,
Do‘stlar diydoridan bo‘lolmas ustun.
Har qancha bo‘lsa ham olamda achchiq,
Achchiqroqdir dono do‘stdan ayriliq.

Tarix guvoh, buyuk ajdodlarimiz va mutafakkirlarimiz Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, Sadriddin Ayniy va Abdulla Qodiriy, Mirzo Tursunzoda va G‘afur G‘ulom, Loiq Sherali va Abdulla Oripov, Nizom Qosim va Sirojiddin Sayyid tojiklaru o‘zbeklarning samimiy va sof do‘stligini tarannum etib kelganlar.

G‘afur G‘ulom tojik va o‘zbek xalqlarining yaqinligi borasida shiru shakar vaznida shunday degan:

Az qadim hardu qudovu andaand,
On pisar – tojik, aro‘sash o‘zbek ast.
Modar az Pomir, padar – farg‘onagi,
Yo xudash o‘zbek, zabonash tojik ast.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi baytlari ham davralarda tez-tez takrorlanadi:

Do‘stu qardoshdir azaldan
O‘zbegim tojik bilan.
Ikkisi bir bayt g‘azaldan
O‘zbegim tojik bilan...

O‘lmas Jamolning mashhur «Ikki tilli bir xalq vasfiga» she’rini esa Tojikiston xalq artisti Jo‘rabek Murodov maromiga yetkazib kuylaydi:

O‘zbekiston o‘g‘lidurman, tojigim gufto pisar,
Rost go‘yam, har kadome sevgilimdir jon qadar.
Ona, deb aytsam birovin, ul biri menga padar,
Hamchu du chashmi siyoham ikki xalq ham mo‘tabar.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqandda Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykallarining o‘rnatilishini Tojikistonda ham katta xursandchilik bilan kutib olishdi. Dushanbeda Alisher Navoiy nomidagi xiyobon ochilishi va Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy haykallarining ustoz-shogird maqomi aks etgan haykali o‘rnatilishi esa tojik xalqining o‘zbek xalqiga bo‘lgan ehtiromi dalilidir. Toshkent metropoliteni stansiyalaridan biriga Mirzo Tursunzoda nomi berilishi ham adabiy do‘stlik rishtalari yanada mustahkamligidan dalolatdir.

Mamlakatimizda yashovchi tojikzabon fuqarolarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi muassisligidagi “Ovozi tojik” gazetasi haftada ikki marta nashr etilmoqda. Bizning viloyatimizda esa “Ovozi Samarqand” gazetasi mushtariylarga yetkazib berilmoqda. Respublikamizdagi boshqa hududlarida bo‘lgani singari Samarqandda ham ta’lim tojik tilida olib boriladigan o‘rta maktablar mavjud. Samarqand davlat universitetida, Buxoro va Farg‘ona viloyatlari oliygohlarida tojik guruhlari tashkil etilgan.

Bugun o‘zbek va tojik xalqlari munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o‘rtasidagi abadiy do‘stlik va ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi hujjat asosida yanada mustahkamlanmoqda. Bu nafaqat ikki xalq, balki Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlashning kafolatidir.

Zohir HASANZODA,
"Ovozi tojik" gazetasining Samarqand viloyati bo‘yicha muxbiri.

Samarqand aholisi qachon markazlashgan issiqlik tizimidan foydalanadi?



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Keyingi qozonxonalar tarixi ham shunga o‘xshash, shaharni issiqlik bilan ta’minlagan yana uch qozonxonaning ikkitasi 1973-yilda, yana bittasi 1974-yilda qurilgan. Shundan keyin mana, yarim asr o‘tib ham shaharda yirik markazlashgan qozonxona qurilgan emas. Qurilmagani mayli, borlari ham o‘z vaqtida modernizatsiya qilinib, saqlab qolinmadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yillar davomida «Issiqlik manbai» balansidagi ayrim mulklar viloyat Kengashi qarori bilan xususiy tadbirkorlarga berib yuborilgan holatlar ham bor...

Xo‘sh, yuqoridagi asosiy savol: Issiqlik ta’minoti tiklanadimi?

- Shahardagi eng yirik RK-2 qozonxonasini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish uchun Jahon banki tomonidan 30 million dollar ajratilgan bo‘lib, tender savdolari o‘tkazilgan va pudratchi tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari amalga oshirilmoqda, - deydi “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi mutaxassisi Jamoliddin Husanov. - Bu ishlar yakunlangach, shahar bo‘ylab 381 ta ko‘p qavatli uy, 22 ta ijtimoiy soha obyekti issiqlik bilan to‘liq ta’minlanadi. Faqat ushbu qozonxona hamda tarmoqlar modernizatsiya va rekonstruksiyasi 2026-yilda to‘liq yakuniga yetadi.

Mutaxassisning ma’lum qilishicha, shahardagi yirik qozonxonalardan yana biri — RK-1 modernizatsiyasi ayni vaqtda tugatilgan, faqat endilikda eskirgan tarmoqlarni yangilash va aholi xonadonlariga ulash jarayonlari davom etmoqda. Tez orada ushbu ishlar yakuniga yetib, 93 ta ko‘p qavatli uy markazlashgan issiqlik tarmog‘iga ulanadi. Tahririyat albatta, bu jarayon yakunini ham kuzatib boradi.

Umuman olganda, bugungi kunda issiqlik ta’minoti bilan bog‘liq vaziyat shunday: viloyat “Issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi tasarrufida 13 ta qozonxona ishlab turibdi. Ulardan biri (asosiysi) Nurobod tumanida bo‘lib, 94 ta ko‘p xonadonli uy va 20 ta ijtimoiy soha obyektiga issiqlik beradi. Samarqand shaxrida joylashgan yana 12 ta inshoot esa lokal qozonxona bo‘lib, asosan 2-3 tadan obyektga issiqlik yetkazadi.

Mazkur qozonxonalar kuz-qish mavsumida jami 112 ta ko‘p qavatli uy-joylardagi 3048 xonadon hamda 38 ta ijtimoiy soha obyektlariga issiqlik energiyasini yetkazib bermoqda.

Ko‘rib turganingizdek, asosiy umid endilikda foydalanishga topshirilishi kutilayotgan yirik qozonxonalardan. Ular ishga tushgach, eng yirik aholi manzillarida muammo hal etilishi mumkin. Shu bilan birga, tabiiy gaz va elektr energiyasi sarfi ham sezilarli kamayib, ushbu tizimlardagi zo‘riqishlar oldi olinadi. Hamma gap loyihalarning bu safar oxirigacha borishida.

Darvoqe, mutasaddiga ko‘ra, joylarda barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivlarida qozonxonalar ham foydalanishga topshirilmoqda. Masalan, Bulung‘ur tumanida qurib bitkazilgan qozonxona allaqachon 10 ta ko‘p qavatli uyga issiqlik yetkazmoqda. Qolgan obyektlar ham ishga tushsa, issiqlikka ulanishi ma’lum qilindi. Xuddi shunday Urgutdagi “Yangi O‘zbekiston” massivida uylar issiqlik tizimiga ulanishi ko‘zda tutilgan.

Yirik shaharlarda issiqlik tizimi bo‘lmasa, qanday oqibatlar yuzaga kelishini tajribamizdan bilamiz (kuz-qish mavsumidagi gaz bosimi pasayishi ortidan yog‘iladigan shikoyatlar, yonib ketgan transformatorlar va hokazo). Shunday ekan, tumanlarda har yili ko‘p qavatli uylar qurilayotgani ortidan taklifimiz shu: bunday aholi maskanlari albatta, issiqlik qozonxonalari bilan birga topshirilishi shart.

Anvar MUSTAFOQULOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Litsey yoshlari – iqtidorli, bilimli va faol

Ma’rifatli, ilmli bo‘lish uchun yoshlikdan bilim olishga intilish kerak. Bugun davlatimiz tomonidan o‘quvchi-talabalarning o‘qib-o‘rganishi, uzluksiz ta’lim-tarbiya olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Buni Samarqand davlat universitetining akademik litseyi misolida aytadigan bo‘lsak, bugun ta’lim dargohida 500 dan ortiq o‘quvchilarga yuqori malakali o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya berib kelmoqda. Pedagoglarning ikki nafari fan doktori bo‘lsa, o‘n uch nafari fan nomzodi, qirqdan ortig‘i bosh va yetakchi o‘qituvchilar.

Litseyda barcha fanlardan fan va sport to‘garaklari faoliyat ko‘rsatadi. Keyingi uch yilda yetti nafar o‘quvchi xalqaro, respublika va viloyat miqyosidagi sport musobaqalarida ishtirok etib, nufuzli o‘rinlarni egalladi. O‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan xalqaro va respublika fan olimpiadalarida o‘n to‘rt nafar, viloyat fan olimpiadalari va ko‘rik-tanlovlarida qirq nafar o‘quvchi g‘olib bo‘ldi. O‘tgan yili “Yil kitobxoni” respublika ko‘rik-tanlovida bir nafar o‘quvchi faxrli 3-o‘rinni egalladi. “Huquq bilimdonlari” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida ikki nafar o‘quvchi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. “Zakovat” bilimlar bellashuvida litsey jamoasi viloyatda faxrli o‘rinni egallab, respublika bosqichida qatnashdi.

Ta’lim dargohida tumanlardan kelib o‘qiydigan o‘quvchilar uchun talabalar turarjoyi mavjud bo‘lib, ikki yuz nafar talaba uchun uch mahal imtiyozli ovqatlanish joriy etilgan.

O‘ttiz uch mingdan ortiq kitob fondiga ega axborot-resurs markazi, qiziqarli uchrashuvlar, mushoira va adabiy kechalar tashkil etiladigan ikki yuz o‘rinli faollari zali, zamonaviy talablarga mos sport zali o‘quvchilar uchun xizmat qilmoqda.

Muattar SALIMOVA.

9-dekabr – Buxgalter va auditorlar kuni

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda biror bir tashkilot, korxona yoki muassasa o‘z faoliyatini buxgaltersiz tasavvur eta olmaydi. Buxgalterlar haqida xalq orasida kirim-chiqimlarni nazorat qiluvchi, hujjatlarni tartibga soluvchi mutaxassis, hisobchi degan fikr shakllangan. Korxona va tashkilotlar rahbariyati buxgalterlarga xo‘jalik jarayonlarini qonunchilik asosida hujjatlashtiruvchi, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mulkning saqlanishi va uni ko‘paytirib borishga mas’ul shaxs sifatida qarashadi.

Iqtisodiyotimiz ravnaqida ularning o‘z o‘rni bor

Mamlakatimizda har yili 9-dekabr buxgalter va auditorlar kuni sifatida nishonlanib kelinadi. Tadbirkorlik subyektlarini barqaror rivojlantirishda bu kasb egalarining o‘rni beqiyos.

Xalqaro buxgalterlar kuni (International Accounting Day) 10-noyabrda nishonlanadi. 1494-yilning shu kunida venetsiyalik matematik-olim Luka Pacholi matematikaga bag‘ishlangan “Arifmetika summasi, geometriya, munosabatlar va proporsiyalar” kitobini chop etib, unda birinchi bo‘lib, kitobning “Yozuvlar va schyotlar haqida risola” bobida hisob prinsiplarini, ikki tomonlama yozuvni ta’riflagan. Shu kitob chiqishi bilan buxgalteriya hisobi tashkil topgan, deb qabul qilingan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu sanani ilk bor 1972-yilda Buxgalterlar kuni sifatida nishonlagan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng 1992-yil 9-dekabrda “Auditorlik faoliyati haqida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan va keyinchalik bu sana Buxgalterlar va auditorlar kasb bayrami sifatida nishonlab kelinmoqda.

Odatda, sana arafasida O‘zbekiston buxgalterlar federatsiyasi, O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston auditorlar palatasi buxgalterlar va auditorlar o‘rtasida “Eng yaxshi buxgalter”, “Eng yaxshi auditor” tanlovlarini o‘tkazadi, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etiladi, kasb egalari taqdirlanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojida buxgalter va auditorlarning xizmatlari juda katta. Korxona va tashkilotlarda daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish, tannarxni optimallashtirish, tejamkorlik tartibotlariga rioya qilish, tovar-moddiy boyliklar va moliya resurslarining saqlanishini ta’minlash kabi murakkab vazifalarni bu kasb egalari bajarib kelmoqda. Buxgalteriya hisobi va audit sohasida mukammal bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan mutaxassislar korxonalarda moliyaviy menejer va maslahatchi, rahbar sifatida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yurtimizda MDH mamlakatlari orasida birinchi bo‘lib “Auditorlik faoliyati haqida” gi va “Buxgalteriya hisobi haqida” gi qonunlar qabul qilindi va Buxgalteriya hisobi milliy standartlari tasdiqlandi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida “Buxgalteriya hisobi” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasida mutaxassislar tayyorlanmoqda. Joriy o‘quv yilidan Samarqand iqtisodiyot va servis institutida “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi bo‘yicha magistr darajasida kadrlar tayyorlash boshlandi.

O‘zbekiston buxgalterlar federatsiyasi, O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston auditorlar palatasida buxgalterlar va auditorlarning malakasini oshirish va sertifikatlash tizimi yaratilgan.

Bugungi kunda viloyatimizda buxgalteriya xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashgan 103 ta korxona (75 tasi Samarqand shahrida, 6 tasi Urgut tumanida, 5 tasi Samarqand tumanida va boshqa hududlarda) mavjud. Ularning har biri 10 tadan 500 tagacha tadbirkorlik subyektiga tashqi buxgalteriya xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Auditorlik xizmatlariga ixtisoslashgan 12 ta korxona bo‘lib, ular turli mulkchilik shaklidagi va huquqiy maqomdagi korxonalarga auditorlik xizmatlari ko‘rsatadi.

Korxona va tashkilotlardagi biznes jarayonlarini tartibga solish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari sarfini tejamkorlik asosida amalga oshirish, ularni samarali ishlatish bo‘yicha rahbariyatga asoslangan takliflarni tayyorlab berishda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish katta ahamiyatga ega. Bu borada rivojlangan yirik korxonalarda ishlatilayotgan SAR dasturi, kasb egalari orasida o‘z mavqeini topgan Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqilgan “1S” dasturi, kichik korxonalarga mo‘ljallangan “1UZ” va bir qator dasturlar buxgalteriya hisobi ishlarini yengillashtirish, kasb egalarini kundalik takrorlanadigan oddiy ishlardan ozod qilib, ularning qimmatli vaqtlarini buxgalteriya hisobining yanada muhimroq nazorat va boshqarish funksiyalariga ajratish imkonini yaratmoqda.

Viloyatimizdagi barcha buxgalter va auditorlarni kasb bayramlari bilan tabriklab, jonajon Vatanimiz iqtisodiyoti ravnaqi, viloyatimizda tadbirkorlik muhiti va investitsion jozibadorligini oshirish borasidagi serqirra va murakkab faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

N.IBRAGIMOV,
viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi,
O‘zbekiston Buxgalterlar federatsiyasi boshqaruvi a’zosi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Gulyamova Muminaga (2024-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Bulung‘ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Aliqulov Egamberdiga (2023-yil 15-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Bulung‘ur shahri Mustaqillik maydoni.

* * *

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasida marhum Ruziyev Nurmamat Elmurodovichga (2024-yil 27-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 48-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Normatov Sharofidinga (2024-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko‘chasi, 5-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Xasanov Abdulbarga (2019-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xolmurodov Anvar Xolmurod o‘g‘li notarial idorasida marhum Mardanova Saydaga (2022-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xolmurodov Anvar Xolmurod o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mir Said Baraka ko‘chasi, 40-“A” uy.

* * *

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasida marhum Xaydarov Zulfikar Yuldashevichga (2022-yil 20-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 48-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Nazarov Abduxakimga (2023-yil 2-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 41/100-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Xabibova Raxima Turabayevnaga (2024-yil 16-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Suyarova Xadicha Ergashevnaga (2024-yil 22-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xalilov Maxmud Abduxamidovichga (2020-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius G‘afforov Ulug‘bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Maxsudov Merodj Nasimovichga (2022-yil 9-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning G‘afforov Ulug‘bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 18-uy, 14-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Xotamov Boltaga (2024-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Uralov Abdusayit Xalikovichga (2024-yil 7-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 3-uy, 35-xona.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Sadiyev Ergashga (2011-yil 21-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Xo‘ja Ahror Valiy mahallasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Uzakov Akbar Nurmuxamedovichga (2021-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Marupov Mexroj Talatovichga (2023-yil 20-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug‘diyona maskani, 14/12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Li Yelenaga (2024-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Narzullayev Azimjon Umurzoq o‘g‘liga (2024-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Chuyeva Rozaliya Denicovnaga (2019-yil 14-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Zatsepin Yevgeniy Aleksandrovichga (2023-yil 6-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Artikov Qaxramon Sattarovichga (2024-yil 3-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Temirov Naimjonga (2021-yil 29-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Ziyayev Narzikul Raxmatovichga (2023-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug‘diyona maskani, 14/12-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi “ITALY-CONCEPT-STORE” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310686011) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi “SAMARQAND IDEAL BRICK” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 302840765) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi “CHAYLA-OGA OSHXONASI” oilaviy korxonasining (STIR: 309951528) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

SAMARQANDDA KULOLCHILIK MAKTABI TASHKIL ETILSA...



Usta charx yoniga kelib o‘tirib, ustozlari haqqiga duo qilib, yuziga fotiha tortadi. Keyin o‘ng oyog‘i bilan charxni harakatga keltirib, obdon pishitilgan loydan yangi san’at asari yasashga tushadi. Uskuna gir-gir aylanadi, usta nigohini uzmay, sehrli qo‘llari bilan gilga ishlov beraveradi va u sekin-asta shaklga kiraveradi. Birozdan so‘ng bir parchagina loydan bejirim ko‘za yasaladi. Usta go‘yo go‘dakni ko‘targandek, uni avaylab qo‘liga olib, zavqlanib tomosha qiladi va ohistagini boshqa ko‘zalar yoniga qo‘yadi. Endi uni quritib, xumdonda pishirish, keyin rang va jilo berish zarur.

USTA UMAR JO‘RAQULOVNING SO‘NGGI SHOGIRDI

Sharif Azimov uchun bu jarayon 55 yildan buyon davom etsa-da har gal charx yoniga kelganida ko‘nglida allanechuk hislar uyg‘onadi, dunyo tashvishlarini unutib, xayolida pishitib qo‘ygan va ko‘z oldida aniq-tiniq namoyon bo‘lib turgan san’at asarini endi o‘z qo‘llari bilan yaratishga kirishadi. Qulog‘iga faqat charxning bir maromda aylanishi, qo‘llari orasidagi loydan chiqayotgan mayin sas eshitiladi.

U ilk bor bu charx yoniga kelib, ustozi – usta Umar Jo‘raqulovning ishini zavq bilan kuzatgan va unga shogird tushganida 16 yoshdagi o‘spirin yigit edi.

– 1970-yildan 1973-yilgacha – ustozim bandalikni bajo keltirgunlariga qadar, u kishining yonida bo‘lib, hunar o‘rganganman, – deydi O‘zbekiston Badiiy akademiyasi a’zosi, “Do‘stlik” ordeni sohibi, usta kulol Sharif Azimov. – Usta Umar Jo‘raqulovning ko‘plab shogirdlari bo‘lsa-da men eng so‘nggi shogirdlariman va ustozimning ishini davom ettirib kelayotganimdan faxrlanaman. U kishi kulollar sulolasining oltinchi vakili edi. Ming afsuski, ustozimdan keyin farzandlari orasidan bu ishni davom ettiradiganlar chiqmadi. Shuning uchun men ustaning farzandidek Samarqand kulolchilik an’anasini davom ettirib kelyapman va bundan faxrlanaman. To‘g‘ri, Samarqandda kulollar ko‘p, usta Umar Jo‘raqulovning shogirdlari ham bisyor, lekin u kishi yaratgan maktab mening ijodiy ishlarimda davom etib kelayotganini aytishadi shu soha vakillari, hunarmandlar. Hozirgacha foydalanib kelayotganim, meni akademik kulol darajasiga ko‘targan charx ham ustozimdan meros qolgan.

Samarqand insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri, ilm-ma’rifat, madaniyat markazi bo‘lgani uchun ham bu yerda hunarmandchilik an’analari tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Samarqandning uch ming yillik tarixi aniqlangan Afrosiyob tepaliklari va boshqa arxeologik yodgorliklardan zardushtiylar, sug‘diylar, kushonlar davriga oid noyob ashyolar orasida eng ko‘p uchragani kulolchilik buyumlari, turli terakota, sopol idishlar bo‘lgan. Binobarin, kulolchilik insoniyat madaniy turmush tarzining ilk belgilari hisoblanadi.

Sohibqiron Amir Temur hukmdorligi yillarida esa Samarqand nafaqat G‘arbu Sharqni bog‘lagan qudratli davlat poytaxti, balki madaniyat, savdo-sotiq va hunarmandchilik markazi bo‘lgan. Aynan shu davrda qadimiy kentda usta va hunarmandlar mahallalari yuzaga kelgan. Usta Umar Jo‘raqulov shunday mahallalardan biri – Kulolonning vakili edi.

Hozir ham Samarqandda o‘sha qadimiy, ota-bobolari hunarini davom ettirib kelayotgan mahallalar mavjud. Ammo ular juda kam va barmoq bilan sanarli. Misol uchun, azaldan hunarmandlar maskani bo‘lgan Konigil (nomidan ham ma’lum, bu yer gilga boy hudud sifatida ayniqsa, kulollar uchun juda qadrli joy) qishlog‘iga keyingi yillarda yurtimizda qadimiy an’ana va qadriyatlarni asrab-avaylash va shu orqali sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgan e’tibor tufayli “Turizm qishlog‘i” maqomi berildi. Yurtimizdagi birinchi turizm qishlog‘i hisoblangan mazkur maskan bugun chin ma’noda qadimiy shuhratini tiklab, sayyohlik maskaniga aylanmoqda.

PIYOLADAN “QULT-QULT” KO‘ZAGACHA

Samarqand kulolchiligi an’analarining bir necha ming yillardan buyon davom etishi va rivojlanishida aynan Konigilning ahamiyati katta.

– Konigil shunday joyki, bu yerda kulolchilik uchun zarur bitmas tuganmas tuproq bor – deydi Sharif Azimov. – Bizgacha ham undan barakali foydalanishgan, keyingi bir necha avlodlarga ham yetadi. Faqatgina bugungi shiddatkor zamonda bu joylarni turli bino va inshootlar qurish, atrof-muhitga zarar keltiruvchi omillar ta’siridan asrash zarur. To‘g‘ri, boshqa joylarda ham kulolchilik uchun tuproq, gil topish mumkin, lekin yarim asrlik kulol sifatida ayta olamanki, hech qayerning loyi Konigilnikidek bo‘lmaydi. Men ma’lum vaqt Amerikada ishlashimga to‘g‘ri kelgan. U yerda ham kulolchilikda foydalanishga mo‘ljallangan 50 xildan ortiq tuproq bor, har biridan ko‘zalar yasaganman. Lekin Konigil tuprog‘idek mayin, shirali loy boshqa joyda uchramaydi. Ustozim faqat shu tuproqdan buyumlar yasagan, men ham undan foydalanib kelyapman. Usta qo‘l ostida yasagan birinchi buyumim – piyola ham Konigil tuprog‘idan edi.

Usta Umar Jo‘raqulov kulol sifatida turli xil buyumlar yasagan. Sharif aka esa faqat ko‘zagarlik bilan shug‘ullanib, bu ishni san’at darajasiga ko‘tardi.

– Ustoz shogirdiga hamma hunarini ham o‘rgatmaydi, ayrim sirlarni aytmaydi, degan gap bor, – deydi Sharif Azimov. – Buni har kim turlicha talqin qilsa-da asl haqiqat shuki, shogird ustozi aytmasa, o‘rgatmasa-da uning xatti-harakatlarini kuzatib, gap-so‘zlarini eshitib, o‘zi anglashi, hunarni mukammal o‘rganib olishi kerak. Ya’ni shogird har bir jarayonni diqqat bilan kuzatishi, zehni, farosati bilan ustozining xatti-harakatidan saboq olishi lozim. Menga ham ustozim uni qil, buni yasa deb, aytib o‘tirmasdi. O‘zim ko‘rib, kuzatib, keyin u kishi singari buyumlar yasashga intilganman. Masalan, “qult-qult” ko‘zani faqat usta Umar Jo‘raqulov yasardi. Bu shunday ko‘zaki, og‘iz qismi shaklini biroz o‘zgartirish va ayrim detallar o‘rnatish orqali, idish bo‘sh bo‘lsa ham ichidan suv oqayotgandek “qult-qult” ovoz chiqadi (shuning uchun ko‘za shunday nomlangan). Ustozim shu ko‘zani yasash jarayonini diqqat bilan kuzatishimni aytardi



va tayyor bo‘lgach, eshitib ko‘rishimni so‘rardi. Keyinchalik o‘zim mustaqil ishlay boshlagach, shu sohada bir muncha tajriba orttirgach, “qult-qult” ko‘za yasab ko‘rishga kirishdim. Ko‘za loyini tayyorlashdan pishirishgacha bo‘lgan jarayonda ustozimning har bir harakatini ko‘z oldimga keltirib, ishladim va kutganimdek ko‘za chiqdi.

LUVRDAGI SAMARQAND KO‘ZALARI

Ko‘p yillar Samarqand viloyati va respublika hunarmandlariga bosh bo‘lgan, ayni paytda esa respublika “Hunarmand” uyushmasi raisining maslahatchisi sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan Akobir Hakimovning aytishicha, Sharif Azimov Samarqand kulolchilik maktabi an’analarini davom ettirib, qadimiy Afrosiyob, kushon kulolchiligi tiklanishiga katta hissa qo‘shdi.

– Sharif aka kulolchilikning murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ko‘zagarlik bilan shug‘ullanib, bu borada o‘ziga xos maktab yaratdi, – deydi Akobir Hakimov. – An’anaviy kulolchilik bilan birga Samarqand va Termiz shaharlaridan topilgan qadimiy ko‘za va boshqa idishlarga qarab yoki ular haqida ma’lumotlar asosida o‘sha davrlarga xos kulolchilik buyumlari yasashni o‘zlashtirdi. Bugun u kishi yasagan turli xil ko‘zalar mamlakatimizdagi muzeylar, xalq amaliy san’ati ko‘rgazmalaridan o‘rin olgan, milliyligimiz ko‘zgusi sifatida xorijiy mamlakatlardagi elchixonalarimizga joylashtirilgan. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda ko‘rgazmalar o‘tkazgan. Hatto, dunyoga mashhur Luvr, Ermitaj muzeylarida ham Sharif Azimov ko‘zlarini ko‘rish mumkin. Yurtimizga tashrif buyurgan nufuzli delegatsiyalar, davlat rahbarlariga Sharif Azimov yasagan ko‘zalar noyob hunarmandchilik buyumlari sifatida namoyish etilgani va sovg‘a qilinganiga ko‘p guvoh bo‘lganman.

1997-yilda mamlakatimizning ilk bor Badiiy akademiya tashkil etilganda Sharif aka dastlabki a’zolardan biri sifatida mazkur akademiya a’zoligaga qabul qilingan. 2011-yilda esa Prezident sovrini uchun “Tashabbus” respublika ko‘rik-tanlovida “Eng yaxshi hunarmand” deb e’tirof etilib, avtomobil bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, u kishi turli xalqaro tashkilotlar, respublika Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiya, ko‘plab ijodiy uyushma va tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlarda e’tirof etilib, ko‘plab faxriy yorliq va tashakkurnomalar, sertifikatlar bilan taqdirlangan.

Yaqinda Sharif Azimov 70 yoshga to‘lishi munosabati bilan o‘z xonadonida “Afrosiyob sadosi” deb nomlangan shaxsiy ko‘rgazma uyushtirdi. Unda kulol tomonidan yasalgan mingdan ortiq ashyolar namoyish etilmoqda.

– Bugun yurtimizdagi ko‘plab muzeylar, ko‘rgazmalarda men yasagan buyumlar namoyish etilsa-da san’at shaydolari ular bilan yaqindan tanishishlari uchun Xalfa Ibrohim mahallasida – o‘z xonadonimda ko‘rgazma tashkil etdim, – deydi akademik kulol Sharif Azimov. – Ko‘rgazmadan o‘zim yasagan ming xil ko‘zalar, qadimiy kulolchilik buyumlari namunalari, shuningdek, o‘g‘limning ijodiy asarlari o‘rin olgan. Xalqimiz, xorijlik sayyohlar ham xonadonimizga kelib ko‘rgazmani tomosha qilishlari, ish jarayonimiz bilan tanishishlari mumkin.

ORZUIM – SAMARQANDDA KULOLCHILIK MAKTABI TASHKIL ETISH

Sharif Azimov bir necha yil Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti talabalariga kulolchilikdan saboq berdi. Hozirda Samarqandda bo‘lsa ham tez-tez poytaxtga borib, yoshlarga o‘z mahorat va tajribalarini o‘rgatib kelmoqda.

– Badiiy akademiya tashkil etilib, ilk a’zolar qabul qilinganda biz 66 nafar edik, afsuski hozir 28 nafar qolganmiz, – deydi Sharif aka ko‘ziga yosh olib. – Juda ko‘p safdoshlarimiz, usta va hunarmandlar, rassomlar, asl san’atshunoslar bu dunyodan o‘tdi. Yurtimiz madaniyati, san’ati uchun ulardan boy meros qoldi. Lekin meni boshqa narsa o‘ylantiradi, ya’ni ularning izdoshlari bormi, ishlari davom etadimi? Shundan biroz dilim og‘riydi. Talabalarga saboq berish jarayonida, xalq amaliy san’atining boshqa turlarini bilmadimu, kulolchilik bo‘yicha iste’dodli yoshlar bor ekan. Shunisiga ham shukr. Ammo ana shu iste’dodli yigit-qizlarning bu hunar bilan shug‘ullanishi, uni san’at darajasiga ko‘tarishi uchun ularga sharoit yaratib berish lozim. O‘qitgan talabalarim, shogirdlarimning ko‘pi ishlashga imkoniyat yo‘qligidan boshqa ishlar bilan shug‘ullanishyapti, tirikchilik tashvishida yuribdilar. Menku, imkoniyat borligi uchun uyimda sharoit qilib olganman – charxdan tortib tegirmon, xumdongacha o‘zimda bor. Boshqalar, ayniqsa, yoshlarning hammasi ham bunday ustaxona qilib ololmaydi-da. Bu borada ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, iste’dodini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratish kerak.

Samarqand kulolchilik maktabi yoki shu yo‘nalishda kafedra tashkil etish mening ko‘p yillik orzuim. Chunki, kulolchilik 7 ming yillik tarixga ega bo‘lsa, Samarqand kulolchiligi paydo bo‘lganiga 5 ming yildan oshgan. Xalq amaliy san’atining zarvarag‘i kulolchilik hisoblanadi. Biz uning ayrim sahifalari bilangina tanishmiz xolos. Agar bu ishga faqat hunar deb emas, chinakam san’at sifatida qarasak, nafaqat xalqimizning o‘tmishini o‘rganishimiz, balki bugun va kelajagimiz, sayyohlik uchun muhim yo‘nalishga ega bo‘lamiz.

Odatda, usta va hunarmandlar o‘z ishini farzand va nabiralari davom ettirishini istaydi, bor mahoratini ularga o‘rgatishga harakat qiladi. Bizning sulolamizdan hunarmand chiqmagan. Shunga qaramay, ustozim usta Umar Jo‘raqulov menga kulollikni o‘rgatib, oq fotiha bergan. Allohga shukr, shu paytgacha hayotda qanday muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsam, shu hunar tufayli erishdim, ozmi-ko‘pmi obro‘-e’tibor qozondim. O‘g‘lim hunar o‘rganib, ishimni davom ettirishidan ko‘nglim to‘q. Lekin men bu kulolchilikni, Samarqand kulolchiligidan o‘nlab, yuzlab hunarmandlar davom ettirishini, uni san’at darajasiga ko‘tarishini istayman. Buning uchun necha yoshda bo‘lmay, xizmat qilishga, tajribalarimni yoshlarga o‘rgatishga tayyorman.

G‘olib HASANOV,
Alisher ISROILOV (surat).

Mulohaza

Ibratga to‘la xazina

Kamina 80 yosh arafasida ham jadid bobolarimiz haqidagi ma’lumotlarni o‘qishdan charchamayman. Xususan, "Jadid" haftaligidagi har bir maqolani sinchiklab o‘qib boraman. Ularda ma’rifatparvar ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy xazina va uning ahamiyati haqida biri biridan go‘zal materiallar berilmoqda. Zero, davlatimiz rahbarining bunday el fidoyilari hayotini o‘rganish va undan ibrat olishga undash bo‘yicha chorlovi ijtimoiy hayotda juda katta voqea bo‘ldi, deb o‘ylayman. Negaki jadidlar qoldirgan merosning qadr-qimmati eng avvalo, uning bugungi kunda ham ko‘pchilikka ibrat bo‘la olishidadir.



Men bobom Saidrizo Alizoda hayoti va faoliyati bilan bog‘liq materiallarni, qo‘lyozmalarni o‘rganish jarayonida shu narsaga ishonch hosil qildimki, jadidlar elning chinakam, haqiqiy farzandlari bo‘lishgan. Ular millat manfaati yo‘lida jonini ham fido qilishga tayyor turishgan. Dunyoviy ilmlarni mukammal egallaganliklari uchun millatni faqat ilmgina taraqqiyotga olib chiqishiga qat’iy ishonganlar. Bu yo‘lda mehnat, vaqt va mablag‘larini ayashmagan, ma’rifat uchun nimaiki zarur bo‘lsa, barchasini bajarishgan, lekin biror holda, biror joyda mehnat va xizmatlarini minnat qilishmagan. Shuning uchun ham bobomning faoliyati bilan bog‘liq har bir yangi hujjatni topganimda uni ko‘zlarimga surtaman, uni bag‘rimga bosaman.

Millat fidoyilari uchun xalqning yaxshi-yomoni, mahramu nomahrami, tanish-u begonasi bo‘lmaydi. Ular ochgan maktablarda ziyo istagan har bir bola ta’lim olgan. Ular chiqargan gazetalarni butun omma o‘qigan. Negaki ular xalqqa ma’rifat nima, ilm nima, erkinlik nima ekanligini o‘z hayotlari orqali ham isbotlab berishgan.

S.Alizoda "Zarafshon" gazetasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Xoji Muyin bilan baqamti ishlash jarayonida "Sho‘’lai inqilob" haftanomasini ham chiqaradi. Fors tilida chop etilgan bu jurnalning 98 soni o‘quvchisiga yetib borgan. Bobom fors tilida so‘zlashuvchi aholiga, shuningdek, Eron, Ozarbayjon, Afg‘oniston va Pokistondagi ma’rifatparvarlarga Turkiston ozodligining mohiyati, ilmning qadri, birlashmoqning mohiyati haqida juda go‘zal maqolalar yozgan va bu maqolalar hozirgi kunda ham xorijlik ziyolilar tomonidan o‘rganilmoqda. Bu maqolalardagi g‘oyalar o‘sha davrdagi inqilobiy kurashning shioriga aylangan. Xususan, "Muallim ila muharrir millatning ikki qo‘lidir" degan iborasi naqlga aylanib ketgan.

Shukrki, bobomizning, umuman, jadidlarning faoliyatiga munosib baho berildi, endilikda ularning ma’naviy boyligi har tomonlama o‘rganilmoqda, bu haqda ilmiy tadqiqotlar boshlanib ketdi. Xususan, bobomizning ham 115, 130, 135 yilliklari davlatimiz rahbarining bevosita yordami bilan munosib nishonlandi, ushbu meros mohiyati yuzasidan ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazildi. Ularda xorijlik ziyolilar ham ishtirok etishdi.

O‘tgan yillar davomida kamina Eron, Pokiston va Ozarbayjondagi ko‘plab kutubxonalarda bo‘lib, jadidlar faoliyatiga, ayniqsa, bobomning ishlariga oid juda ko‘plab hujjatlardan nusxa olib qaytdim. Shu uchun ham bugungi kunda u kishining tabarruk nomi bilan ataluvchi ko‘chada joylashgan uy-muzeyda eksponatlarimiz soni besh mingdan oshdi. Ular orasida S.Alizodaning nafaqat ijodkorlar, jurnalistlar, balki siyosat arboblari bilan yozishmalaridan ham nusxalar bor. Talabalar, yoshlar, keksalar bu yerga tashrif buyurib, eksponatlarni havas bilan tomosha qilishadi, har gal ularga fidoyi bobomning ibratli fazilatlaridan gapirib beraman.

Jadidlar juda murakkab jarayonda faoliyat ko‘rsatishgan. Bir tomonda xalqning savodsizligi, rus imperiyasi siyosatiga qullik kayfiyati, ikkinchi tomondan atrofdagi kuchli davlatlarning manfaatli targ‘ibotlari, ularga har bir harakatda jasoratli hushyor bo‘lishni taqozo etgan. Eng og‘ir damlarda ham bir-birini qo‘llab-quvvatlashgan. Chor Rossiyasi, undan keyin Rus imperiyasi ularni doimo bir-biridan uzoq, bexabar saqlashga uringan. Har bir harakatini kuzatib yurgan. Shu tufayli ko‘pchiligi qatag‘on qurbonlariga aylanishgan.

S.Alizoda turmaga olingandan keyin ham unga ayb qo‘ya olishmagan. Aslida u xorij xavfsizlik tashkilotlari o‘rtasidagi kurashning qurboni bo‘lgan. Hatto u oqlangandan keyin ham Ikkinchi jahon urushi davom etayotganligi sababli aynan GKChP tavsiyasiga ko‘ra erkinlikka chiqarilmagan va Vladimir shahrida vafot etgan. Kamina mashaqqat bo‘lsa-da, bobomning ana shu turmadagi faoliyatini o‘rgandim, u kishiga tegishli bo‘lgan juda ko‘p qo‘lyozma va hujjatlarning, tergov so‘rovlarining nusxalarini olib kelishga erishdim. Qabrining tuprog‘idan ham olib kelib, bu hokni qo‘yib, Samarqanddagi Panjob qabristonida yodgorlik o‘rnatdik.

Shu o‘rinda bobomning jo‘shqin hayotini muhabbat bilan o‘rgangan marhum olimlar Najmiddin Komilov, Begali Qosimov, Saydi Umirov ruhi oldida ta’zimdaman va bugungi kunda ham bu merosni diqqat bilan o‘rganayotgan professor Halim Saidov, faol olim Bahrom Irzayevlarga minnatdorlik bildiraman.

Jadidlar juda katta meros qoldirishdi. Biz uchun muhimi shundaki, ushbu meros hozirgi kunda jamiyatimizga nihoyatda kerak bo‘lgan ajoyib xislatlarni targ‘ib etadi. Zero, bu ma’rifatparvarlar ishlarini davom ettirish, ularday fazilatlarga ega bo‘lish bugun har birimizning muqaddas burchimiz deb bilaman.

Farhod ALIZODA,
Saidrizo Alizoda uy-muzeyi rahbari.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 7-dekabr, shanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 643 nusxada chop etildi. Buyurtma 638. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: D.TO‘XTAYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda